

BUYUK BRITANIYA MAHALLIY TUZILMALARINING JINOYATLARNING OLDINI OLIISH TIZIMIDAGI O'RNINI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI



NIGMATOV
Ruftullo Olimjonovich
O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i o'rinbosari,
falsafa doktori (PhD), professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buyuk Britaniyada jinoyatlarning oldini olish tizimida mahalliy tuzilmalarning o'rnini qiyosiy-huquqiy va kriminologik jihatdan tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi huquqiy-institutsional holati Buyuk Britaniya tajribasi bilan qiyoslanib, mahalliy tuzilmalar vakolatlarini kengaytirish, integratsiyalashgan profilaktika modelini joriy etish, dalillarga asoslangan yondashuvni tatbiq qilish hamda hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda manzilli profilaktika dasturlarini ishlab chiqishga doir amaliy takliflar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jinoyatlarning oldini olish, mahalliy tuzilmalar, jamoat xavfsizligi, idoralararo hamkorlik, jamoaviy samaradorlik, langarlangan plyuralizm, Buyuk Britaniya tajribasi, O'zbekiston Respublikasi amaliyoti.

Аннотация. В статье с сравнительно-правовых и криминологических позиций анализируется роль местных структур в системе предупреждения преступности в Великобритании. На основе сопоставления с правовой и институциональной практикой Узбекистана предлагаются меры по расширению полномочий местных органов, внедрению интегрированной и доказательной профилактики и разработке адресных программ с учётом региональных особенностей.

Ключевые слова: предупреждение преступности, местные структуры, общественная безопасность, межведомственное взаимодействие, коллективная эффективность, якорный плюрализм, опыт Великобритании, практика Узбекистана.

Abstract. This article provides a comparative legal and criminological analysis of the role of local structures in crime prevention in Great Britain. The legal and institutional framework of the Republic of Uzbekistan is compared with the British experience, and practical recommendations are proposed on expanding local powers, introducing an integrated prevention model, applying an evidence-based approach, and developing targeted programs considering regional specifics.

Keywords: crime prevention, local structures, public safety, inter-agency cooperation, collective efficacy, anchored pluralism, British experience, practice of the Republic of Uzbekistan.

Har qanday sohani samarali rivojlantirish, uning muammolarini chuqur anglash va amaliy yechimlar ishlab chiqish, eng avvalo, mustahkam empirik bazaga tayanishni talab etadi. Ya'ni, mavjud holatni real ma'lumotlar asosida o'rganish, statistik tahlil qilish va amaliyotda shakllangan tendensiyalarni aniqlash ilmiy tadqiqotning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan

birga, sohani rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, uni milliy sharoitga moslashtirish orqali samarali mexanizmlarni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Xususan, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida xalqaro tajribaga murojaat qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu yo'nalishda turli davlatlarda

sinovdan o'tgan yondashuvlar, institutsional modellar va amaliy mexanizmlar mavjud bo'lib, ularni qiyosiy tahlil qilish milliy tizimni takomillashtirishda muhim ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu borada, Buyuk Britaniya tajribasini o'rganish, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi. Zero, mazkur davlatda huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasida jamoatchilik ishtirokini ta'minlash, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish kabi yo'nalishlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, mahalliy darajadagi institutlar faoliyatining yuqori darajada tashkil etilgani va profilaktika ishlarining kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi ushbu tajribani o'rganishni dolzarblashtiradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida Buyuk Britaniya tajribasini qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilish, uning samarali jihatlarini aniqlash hamda milliy amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini asoslash maqsad qilib qo'yilgan.

Buyuk Britaniyada jinoyatlarning oldini olish tizimida mahalliy tuzilmalarning o'rnini alohida nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur institutlar jinoyatchilikka qarshi kurashishda aholiga yaqinligi, hududiy xususiyatlarni chuqur o'rganishi va profilaktik chora-tadbirlarni manzilli tashkil etish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Ushbu masala nafaqat markaziy va mahalliy darajalar o'rtasida resurslar hamda vakolatlarni taqsimlash muammosi sifatida, balki jinoyatchilikning tabiati, kelib chiqish omillari va samarali profilaktika mexanizmlarini belgilashga doir ilmiy-nazariy yondashuvlar nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy munozara obyekti hisoblanadi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, Buyuk Britaniyada mahalliy organlarning jinoyatlarning oldini olish tizimidagi o'rnini bir vaqtning o'zida shakllanmagan. U 1980-yillardan asta-sekin rivojlanib, norasmiy yondashuvlardan majburiy huquqiy mexanizmlarga aylanib borgan.

Bu jarayonlarda 1991-yilda tayyorlangan Morgan dokladi [1] muhim o'rin tutgan. Ushbu hujjat mahalliy organlarni to'laqonli profilaktika subyekti sifatida tan olish va ularning vakolatlarini qonunchilikda mustahkamlash zarurligini asoslab

bergan. Shu bilan birga, ushbu yondashuv orqali "jamoat xavfsizligi" ("community safety") tushunchasi jamiyatda keng qo'llanila boshlagan. Bu tushuncha jinoyatlarning oldini olishni faqat huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati emas, balki turli idoralar va jamoatchilik hamkorligiga asoslangan keng ijtimoiy jarayon sifatida talqin qiladi.

Agar jinoyat, avvalo, mahalliy ijtimoiy sharoit, ya'ni muayyan hudud xususiyatlari, shaxslararo munosabatlar va muhit bilan bog'liq bo'lsa, bu holda mahalliy daraja jinoyatlarning oldini olishda muhim va o'rnini boshqa subyektlar bilan to'ldirib bo'lmaydigan ahamiyatga ega bo'ladi. Aksincha, agar jinoyat ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga kelsa, mahalliy tuzilmalar asosan markaziy darajada ishlab chiqilgan strategiyalarni amalga oshiruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi [2].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida mahalliy tuzilmalar muayyan o'ringa ega. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-2026-yillarda qabul qilingan PQ-1 [3], [4] hamda PQ-2-son [5] qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mahalliy hokimliklar va mutasaddi idoralar rahbarlariga aniq hududlar hamda shaxs toifalari nomma-nom birlashtirilib, ularning mas'uliyati sezilarli darajada oshirildi.

Biroq, amaliyotdagi mavjud muammolar va tahlillar idoralararo hamkorlik mexanizmlari hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatmoqda. Xususan, bugungi kunda strategik yo'nalishlar markaziy organlar tomonidan ishlab chiqilmoqda, mahalliy tuzilmalar esa asosan ularni ijro etuvchi bo'g'in bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, mahalliy tuzilmalar jamoat xavfsizligini ta'minlash vazifalarini qo'llab-quvvatlayotgan bo'lsa-da, ularning mazkur sohadagi huquqiy majburiyatlari va resurs manbalari yetarli darajada kengaytirilmagan. Markazlashuv darajasining yuqoriligi hamda mahalliy vakolatlarning nisbatan cheklanganligi saqlanib qolmoqda. Shu bois, markazlashgan boshqaruv va mahalliy tashabbuslarni uyg'unlashtiruvchi gibril yondashuvlar amaliyotda keng qo'llanilmayapti.

Buyuk Britaniya esa mavjud qonunchilik va amaliyot jinoyatlarning oldini olish faoliyatida "jamoatchilikka asoslangan" hamda "davlatga yo'naltirilgan" modellardan biridan qat'iy foydala-

nishni nazarda tutmaydi. Aksincha, o'tgan asrning 80-yillardan buyon shakllangan tizim o'ziga xos aralash (gibrid) xususiyatga ega bo'lib, turli yondashuvlarni o'zaro uyg'unlashtirishga asoslanadi. Mazkur tizimda markazlashgan normativ talablar mahalliy darajada amalga oshirish mexanizmlari bilan, davlat moliyalashtirishi jamoatchilik tashabbuslari bilan, shuningdek, politsiya vakolatlari munitsipal organlar mas'uliyati bilan birga qo'llaniladi [6].

Fikrimizcha, mahalliy tuzilmalarning jinoyatchilikning oldini olish tizimidagi o'rnini to'g'ri baholash uchun bir nechta yondashuvni birgalikda qo'llash zarur. Xususan, institutsional (tuzilmalar faoliyati), funksional (ularning vazifalari) va tanqidiy (muammo va kamchiliklarni ochib berish) tahlillar bir-birini to'ldirgan holda qo'llanilishi kerak. Biz ilgari surayotgan ushbu mexanizm Ian Loader va Neil Walker [7] tomonidan ilgari surilgan "langarlangan plyuralizm" (anchored pluralism) konsepsiyasida ham o'z aksini topgan. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, jamiyatda turli fikr va manfaatlar mavjud bo'lishi tabiiy va zarur, chunki bu qaror qabul qilish jarayonini boyitadi va ijtimoiy muvozanatni ta'minlaydi. Biroq nazoratsiz xilma-xillik manfaatlar to'qnashuvi va tartibsizlikka olib kelishi mumkin. Shu bois plyuralizm demokratik tamoyillar, qonun ustuvorligi va umumiy qadriyatlar asosida "langarlanishi" zarur. Ana shu "langar" turli subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirib, erkinlik va tartib o'rtasida muvozanatni ta'minlaydi hamda jamiyatda samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Buyuk Britaniyada jinoyatchilikning oldini oluvchi mahalliy tuzilmalarning o'rnini ilmiy asoslashda bir nechta kriminologik yondashuvlarga tayaniladi. Bu yondashuvlarning har biri mamlakatda shakllangan institutsional modellarning rivojlanishiga muayyan darajada hissa qo'shgan.

Xususan, Adam Crawford o'z tadqiqotlarida jinoyatga ta'sir etuvchi asosiy omillar – yashash muhiti, ijtimoiy munosabatlar, uy-joy sharoiti, jamoat joylarining holati va aholining demografik tarkibi – ko'p jihatdan mahalliy darajada shakllanishini va o'zaro bog'liq holda ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan [8].

Biroq, markaziy darajada, masalan, Whitehall da ishlab chiqilgan strategiyalar Manchester, Birmingham yoki Bristol kabi shaharlarning muay-

yan hududlariga tatbiq etilganda o'z samaradorligini to'liq saqlab qolmasligi mumkin. Chunki markaziy davlat organlari mahalliy sharoitni, aholining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy munosabatlarini to'liq darajada hisobga ola olmaydi. Hech bir markaziy tuzilma tumanning ijtimoiy muhiti, odamlarning o'zaro munosabati va ishonch darajasini yuqoridan turib to'liq anglay olmaydi.

Shu nuqtai nazardan, R.J. Sampson, Stephen W. Raudenbush va Felton Earls [9] tomonidan ilgari surilgan "jamoaviy samaradorlik" (collective efficacy) konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvga ko'ra, jinoyatchilik darajasi ko'p jihatdan mahalladagi ijtimoiy muhitga bog'liq bo'lib, bunda aholining o'zaro ishonchi va tartibni birgalikda saqlashga tayyorligi muhim o'rin tutadi.

Londonda istiqomat qiluvchi 60 mingdan ortiq fuqaro ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotlar [10] ham ushbu fikrni tasdiqlaydi, ya'ni jamoaviy samaradorlik yuqori bo'lgan hududlarda zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar kamroq qayd etilgan. Shuning uchun ushbu mamlakatda mahalliy tuzilmalar faqatgina ma'muriy ijrochilar bo'libgina qolmay, jamoadagi o'zaro ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy bog'liqlikni kuchaytirish orqali jinoyatlarning oldini olishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim subyektlar hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining mahalliy profilaktikadagi ishtirokini kengaytirish, aholida daxldorlik hissini oshirishga qaratilgan manzilli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, o'rganishlar mazkur faoliyat hali to'liq shakllanmagan va tizimli yo'lga qo'yilmaganidan dalolat bermoqda.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, "mahalla yetiligi" vakillari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari orqali aholi faolligini oshirishga qaratilgan muayyan ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, ushbu faoliyatni muvofiqlashtirish, tizimli boshqarish va dalillarga asoslangan monitoring qilish amaliyoti yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Ayniqsa, aholi o'rtasida jamoaviy ishonch va o'zaro hamkorlik an'anaviy xususiyat kasb etgan bo'lsa-da, uni baholash va nazorat qilishning formal mexanizmlari amaliyotga to'liq joriy etilmagan.

Mahalliy profilaktik chora-tadbirlar, asosan, huquqiy, ijtimoiy normalar va milliy an'analarga tayanadi, biroq ularni rejalashtirish va baholashda

statistik tahlil hamda ilmiy tadqiqotlardan foydalanish darajasi pastligicha qolmoqda.

Bu borada Martin Innes tomonidan ilgari surilgan konsepsiya ham alohida ahamiyatga ega, ya'ni u o'z tadqiqotlarida jinoyatchilik darajasi va aholining o'zini xavfsiz his qilishi o'rtasidagi farqni tushuntirib beradi [11]. Ushbu yondashuvga ko'ra, markaziy organlar umumiy statistikaga tayanadi, mahalliy tuzilmalar esa hududdagi deyarli barcha muammolarni to'g'ridan-to'g'ri his qiladi. Shuning uchun mahalliy darajadagi profilaktika nafaqat tashkiliy jihatdan, balki aholining xavfsizlik hissini oshirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega, deb ta'kidlanadi.

1998-yilda qabul qilingan "Crime and Disorder Act" ("Jinoyat va tartibsizlik to'g'risida") qonuni [12] Buyuk Britaniyada mahalliy tuzilmalar faoliyatini tartibga soluvchi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu qonun mahalliy darajada jinoyatlarning oldini olish tizimini tashkil etishda uchta asosiy prinsipni belgilab berdi.

Birinchi prinsip – majburiylik. Unga ko'ra, mahalliy organlar politsiya bilan hamkorlikda jinoyatlarning oldini olish choralari amalga oshirishi shart hisoblanadi. Ya'ni, bu faoliyat ixtiyoriy emas, balki qonun bilan belgilangan majburiyatdir.

Ikkinchi prinsip – sheriklik (hamkorlik). Jinoyatlarning oldini olish faoliyati turli idoralar o'rtasidagi hamkorlik asosida, xususan, "maxsus hamkorlik" mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bu esa muammoni birgalikda hal etish imkonini beradi.

Uchinchi prinsip – dalillarga asoslangan yondashuv. Mahalliy organlar jinoyatchilik holatini tahlil qilib, maxsus auditor tekshiruvlar o'tkazishi va shu asosda aniq strategiya ishlab chiqishi lozim. Bu jarayonda faqat shaxsiy fikr yoki siyosiy manfaatlarga emas, balki aniq ma'lumotlarga tayanishni talab etiladi.

Shu bilan birga, mazkur qonunning 17-moddasi alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, mahalliy organlar o'z faoliyatining barcha yo'nalishlarida – shaharsozlik, uy-joy siyosati, transport va ijtimoiy xizmatlar sohasida – jinoyatlarning oldini olish masalasini inobatga olishi shart.

Bu orqali qonun jinoyatchilik profilaktikasini alohida yo'nalish sifatida emas, balki mahalliy boshqaruvning barcha sohalariga singdirilgan umumiy vazifa sifatida belgilab berdi.

Jamoat xavfsizligi hamkorliklari (Community Safety Partnerships, CSPs) avvalgi jinoyatchilik va tartibsizlikni kamaytirish hamkorligi (Crime and Disorder Reduction Partnership, CDRP) tuzilmalari o'rnini egallagan bo'lib, mahalliy darajada jinoyatlarning oldini olishda asosiy hamkorlik mexanizmi hisoblanadi [13]. Ular qonun bilan belgilangan majburiy idoralararo tuzilmalar bo'lib, tarkibiga politsiya, mahalliy organlar, yong'in xavfsizligi xizmatlari, sog'liqni saqlash tizimi va probatsiya muassasalari kiradi.

CSPs faoliyati ma'lum bir tizim asosida tashkil etiladi. Unda, avvalo, hududdagi jinoyatchilik holati o'rganiladi, keyin shu ma'lumotlar asosida aniq maqsad va vazifalar belgilanadi, so'ng ular amalga oshiriladi va yakunda natijalar baholanadi. Bu jarayon doimiy ravishda takrorlanib boradi.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar ushbu modelning kamchiliklariga ham e'tibor qaratgan. Xususan, Nick Tilley va David Howarth bu holatni "profilaktikaning ortiqcha rasmiylashuvi" deb baholaydi [14]. Ularning fikricha, amaliyotda ba'zan profilaktika ishlaridan ko'ra, hisobot tayyorlash, yig'ilish o'tkazish va hujjatlar ishlab chiqish kabi rasmiy talablar ustun kelib qoladi. Bu muammo alohida shaxslarga emas, balki tizimning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Ya'ni hisobot berish va rasmiy talablarni bajarish jarayoni ba'zan asosiy maqsadga aylanib ketishi mumkin.

Bundan tashqari, D. Gillingtonning tadqiqotlarida mahalliy darajadagi hamkorlikda uchraydigan asosiy to'siqlar ham ko'rsatib o'tilgan [15]. Ularni shartli ravishda guruhlariga ajratish mumkin.

Institutsional to'siqlar. Turli idoralar har xil vazifa va yondashuvga ega bo'lgani sababli, ularning hamkorligi doimo ham oson kechmaydi. Masalan, politsiya tezkor chora ko'rishga yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy xizmatlar uzoq muddatli profilaktikaga ko'proq e'tibor qaratadi.

Resurs yetishmovchiligi. Turli tashkilotlarning moliyaviy va kadrlar imkoniyatlari bir xil emas. Ko'p hollarda politsiya tahlil va ma'lumotlar bilan ishlashda ustunlikka ega bo'lib, bu hamkorlikda muayyan tengsizliklarni keltirib chiqaradi.

O'zbekistonda ham idoralararo hamkorlikda ma'lum nomutanosibliklar kuzatiladi. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati asosan tezkor chora ko'rish va huquqbuzarliklarni

bartaraf etishga yo'naltirilgan bo'lsa, ijtimoiy xizmatlar ko'proq uzoq muddatli profilaktika va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratadi.

Bu ikki yo'nalish bir-birini to'ldirishi lozim bo'lsa-da, amaliyotda ular o'rtasidagi uzluksiz hamkorlik mexanizmlari yo'lga qo'yilmagan. Shuningdek, resurslar cheklanganligi ham bunga ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu sababli, mahalliy darajadagi profilaktika faqat tuzilmalarni yaratish bilan emas, balki ular o'rtasidagi haqiqiy va samarali hamkorlikni ta'minlash bilan bog'liq murakkab jarayon hisoblanadi.

Shu bilan birga, hududdagi geomuhitni to'g'ri tashkil etish orqali jinoyatchilikning oldini olish g'oyasi, ya'ni atrof-muhitning dizayni orqali jinoyatchilikni oldini olish (Crime Prevention Through Environmental Design, CPTED) yondashuvi mahalliy organlar faoliyatida muhim o'rin tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, shaharsozlik va mavjud infratuzilmani to'g'ri rejalashtirish jinoyatlarning oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, turar-joy hududlarini qulay va ochiq qilib loyihalash, jamoat joylarini yoritish, ovloq va chekka hududlarda nazoratni ta'minlash orqali kriminogen xavfni kamaytirish mumkin. Shuningdek, hududni tashqi tomondan kuzatish oson qilib tashkil etish ("himoya qilinishi mumkin bo'lgan joy/hudud" – "defensible space" tamoyili) [16] amaliyotda o'z samarasini ko'rsatgan.

Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizdagi tuman va shaharlarda profilaktika ishlarini hududning xususiyati, geomuhiti orqali tashkil etish yondashuvi rivojlanishning dastlabki bosqichida turibdi. Xususan, turar-joy maskanlarida qurilish bosqichidanoq jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ko'chalarni yoritish hamda nazoratni kuchaytirish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq, bu chora-tadbirlar hozircha yagona tizim va aniq standartlar asosida emas, balki ko'proq alohida tashabbuslar doirasida amalga oshirilayotgani kuzatiladi. Natijada, bu yo'nalishda barqaror va samarali profilaktika modelini shakllantirish, yagona konsepsiya va me'yoriy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda.

Buyuk Britaniyadagi jinoyatning ko'chishi tahlili (Crime Displacement Analysis, CDA) doirasida tashkil etilgan yoshlar bilan ishlaydigan jinoyat-

chilikni kamaytirish jamoalari (Youth Offending Teams, YOT) ham mahalliy profilaktika tizimining muhim qismi hisoblanadi. Bu guruhlar mahalliy darajada faoliyat yuritadi va politsiya, probatsiya, ijtimoiy xizmatlar, ta'lim hamda sog'liqni saqlash sohalari vakillarini birlashtiradi. Ularning faoliyati markaziy va mahalliy manbalar hisobidan moliyalashtiriladi va muvofiqlashtiriladi.

Olib borilgan ayrim ilmiy tadqiqotlar natijalari ham mahalliy profilaktikaning o'rni beqiyosligini tasdiqlaydi. Jumladan, D. Farrington va B. Welsh tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda oila va xavf guruhiga kiruvchi bolalar bilan erta bosqichda olib borilgan ishlar (masalan, oilani qo'llab-quvvatlash va maktabgacha rivojlantirish dasturlari) jinoyatchilikni kamaytirishda eng samarali choralardan biri ekani asoslab berilgan [17]. Bu yondashuv nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali investitsiya sifatida baholangan.

O'zbekistonda yoshlar bilan profilaktika ishlari asosan maktab va mahalla tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu orqali muayyan natijalarga erishilayotgan bo'lsa-da, ushbu faoliyat ko'proq umumiy tarzda tashkil etilib, aniq maqsadli va kompleks dasturlar yetarli darajada joriy etilmagan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Buyuk Britaniyada, yoshlar bilan ishlashda oila va bolalarga qaratilgan barvaqt (early-stage) profilaktika dasturlari keng qo'llanilib, ularning samaradorligi amaliyotda o'z isbotini topgan. Bunday yondashuv muammolarni erta bosqichda aniqlash va salbiy oqibatlarini oldini olish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ham yoshlar profilaktikasini yanada takomillashtirish uchun barvaqt aniqlashga asoslangan, manzilli va kompleks dasturlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada olib borilayotgan islohotlar yuqoridagi qonunlar bilan cheklanib qolmagan. Xususan, 2019-yildan boshlab Angliyaning yirik shaharlarida zo'ravonlikni kamaytirish bo'yicha tuzilmalar (Violence Reduction Units, VRU) tashkil etildi [18]. Ushbu tuzilmalar zo'ravonlikka "jamoat salomatligi" yondashuvi asosida qaraydi, ya'ni zo'ravonlik faqat huquqbuzarlik emas, balki oldini olish mumkin bo'lgan ijtimoiy muammo sifatida baholanadi.

Politsiya va mahalliy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlar ham yillar davomida sezilarli

darajada o'zgardi. Ilgari ular mustaqil tashkilotlar sifatida alohida faoliyat yuritgan bo'lsa, bugungi kunda politsiya mahalla xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan yagona, integratsiyalashgan tizimning bir qismi sifatida ishtirok etmoqda.

2000-yillarda shakllangan "neighbourhood policing" konsepsiyasi aynan shu yondashuvga asoslanadi. Unga ko'ra, politsiya mahalliy aholi, biznes va jamoat tashkilotlari bilan doimiy hamkorlikda ishlaydi. Bu maqsadda maxsus tuman guruhlar tashkil etilgan. Masalan, London Metropolitan politsiyasi tomonidan joriy etilgan Safer Neighbourhood Teams (SNTs) ushbu modelning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday guruhlar jinoyatchilikning umumiy darajasini emas, balki aholida xavotir uyg'otadigan "muayyan huquqbuzarliklar"ning oldini olishda samarali natija beradi [19]. Shuning uchun ularning faoliyatini baholashda faqat jinoyat statistikasiga emas, balki aholining xavfsizlik hissi va politsiyaga bo'lgan ishonchiga ham e'tibor qaratish lozim.

Mahalliy profilaktika tizimida fuqarolik jamiyati va ixtiyoriy tuzilmalar ham muhim o'rin tutadi. Ular davlat yoki bozor mexanizmlari bilan to'liq qamrab olinmaydigan alohida sohani tashkil etadi. Masalan, Neighbourhood Watch* kabi tashkilotlar minglab mahalliy guruhlarini birlashtirib, keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlaydi.

Tadqiqotlarga ko'ra, bunday tuzilmalar jinoyatchilik darajasini muayyan darajada kamaytirishga ta'sir ko'rsatadi [20]. Biroq, natijalar barcha hududlarda bir xil emas, ya'ni ular mahallaning ijtimoiy holati va aholining faolligiga bog'liq. Aynan shu farqlar ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Jumladan, ayrim tadqiqotlarda "tanlov xatosi" fenomeni qayd etilgan [21], ya'ni nisbatan farovon va ijtimoiy jihatdan birlashgan hududlarda profilaktika faolligi yuqori bo'ladi, jinoyatchilik ko'proq uchraydigan hududlarda esa bunday tashabbuslar kamroq rivojlanadi.

Bu holatni tushuntirishda Robert Putnamning ijtimoiy kapital haqidagi nazariyasi [22] muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, turli ijtimoiy guruhlar

o'rtasidagi aloqalar (ijtimoiy kapitaldagi ko'priklar) kuchli bo'lgan jamiyatlarda odamlar birgalikda muammolarni hal qilishga ko'proq tayyor bo'ladi. Aksincha, ijtimoiy aloqalar zaif bo'lgan hududlarda profilaktika imkoniyatlari ham cheklanadi.

Bu fikr juda muhim bo'lgan bir xulosaga olib keladi. Agar davlat jinoyatlarning oldini olishda fuqarolik jamiyatiga tayanmoqchi bo'lsa, u ijtimoiy tengsizlik muammosiga befarq bo'la olmaydi. Chunki aynan shu omil fuqarolar faolligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, D. Garland bu yondashuvni tanqid qilib, uni "responsibilization" (mas'uliyatni jamoaga yuklash) strategiyasi deb baholaydi [23]. Uning fikricha, davlat ayrim hollarda xavfsizlik uchun mas'uliyatni jamoatchilikka yuklab, o'zidan kamaytiradi.

Biroq, bizningcha, fuqarolik jamiyati ishtirokidagi huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati faqat davlat siyosati natijasi emas. U mahalliy jamoalarda an'anaviy ravishda shakllangan o'zaro yordam va ijtimoiy nazorat mexanizmlariga ham tayanadi.

Yana bir muhim masala – mahalliy tuzilmalarning moliyaviy imkoniyatlari Buyuk Britaniyada jinoyatlarning oldini olish tizimidagi muhim ziddiyatni ochib beradi. Davlat mahalliy organlarga profilaktika bo'yicha aniq majburiyatlar yuklaydi, ammo bu vazifalarni bajarish uchun yetarli va kafolatlangan moliyaviy resurslarni doimo ta'minlamaydi.

Xususan, 2010–2019-yillarda mahalliy organlar markaziy moliyalashtirishning sezilarli qisqarishiga (26–28%) duch kelgan [24]. Bunday sharoitda ular mavjud mablag'larni, avvalo, qonunan majburiy bo'lgan sohalarga (ijtimoiy himoya, ta'lim va sog'liqni saqlash) yo'naltirishga majbur bo'lgan. Natijada profilaktika dasturlari, agar ular majburiy maqomga ega bo'lmasa, birinchi navbatda qisqartirilgan.

Bu holat Buyuk Britaniya modelidagi muhim muammoni ko'rsatadi. Ya'ni, profilaktika qonun bilan majburiy qilib belgilangan bo'lsa-da, uni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy ta'minot doimo kafolatlanmagan. Shu sababli profilaktika

* Izoh: Neighbourhood Watch – Buyuk Britaniyaning yirik jamoatchilik tashkiloti bo'lib, ushbu tashkilot o'n minglab kichik guruhlar tarkibida 2 mln. dan 3,8 mln. gacha ishtirokchini birlashtirgan.

faoliyati nafaqat Buyuk Britaniyada, balki butun dunyoda ko'p jihatdan byudjet imkoniyatlariga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Shundan bo'lsa-da, ayrim tadqiqotlarda [25] bu jarayon mahalliy organlar rolining o'zgarishiga olib kelgani ta'kidlanadi. Ilgari ular profilaktika siyosatini faol amalga oshiruvchi subyekt bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda ko'proq boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi rolga o'ta boshlagan. Bu nafaqat resurslar kamayishi, balki yondashuvlardagi o'zgarishlarni ham anglatadi. Boshqacha aytganda, mahalliy organlarda majburiyat saqlanib qolgan, lekin uni amalga oshirish imkoniyatlari qisqargan. Natijada "mas'uliyat" bilan "imkoniyat" markazi o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Bu esa amalda hisobotlar bajarilishiga, ammo real profilaktika ishlari yetarli darajada samara bermasligiga olib kelgan.

Shu bilan birga, mahalliy profilaktikada hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish juda muhim, ammo amalga oshirish jihatidan ancha murakkab vazifadir. Buyuk Britaniya shaharlari ijtimoiy va demografik jihatdan juda xilma-xil. Bir xil munitsipalitet doirasida turli ijtimoiy sharoit, etnik tarkib va jinoyatchilik xavfiga ega hududlar mavjud.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilik haqida aholida shakllangan tasavvurlar doimo real statistikaga mos kelavermaydi. Ko'p hollarda odamlar ko'zga ko'rinadigan, lekin unchalik og'ir bo'lmagan holatlarni (masalan, yoshlarning to'planishi) katta xavf sifatida qabul qiladi [26]. Aksincha, kamroq ko'zga tashlanadigan, lekin jiddiyoq oqibatlariga olib keladigan muammolar yetarlicha baholanmaydi.

Siyosiy bosim ostida mahalliy organlar va hamkorlik tuzilmalari ba'zan resurslarni aynan shunday "ko'rinadigan" muammolarga yo'naltirishga moyil bo'ladi. Bu esa umumiy profilaktika samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Angliya va Shotlandiya modellarini solishtirganda, ularning yondashuvi turlicha ekani ko'rinadi. Masalan, Shotlandiyada mahalliy profilaktika modeli "har bir bola uchun to'g'ri yondashuvni ta'minlash" tamoyiliga asoslanadi [27]. Bu yondashuv har bir bolaning ehtiyojini barvaqt aniqlab, unga manzilli va muvofiq yordam ko'rsatishga qaratilgan kompleks profilaktika choralari ko'rishni nazarda tutadi.

Shotlandiyada umumiy qamrov va individual yondashuv ustuvor bo'lsa, Angliyada asosan xavf guruhlarga kiruvchi shaxslarni aniqlab, ularga qaratilgan manzilli choralari qo'llaniladi.

Yuqoridagi davlatlarning mahalliy profilaktika tuzilmalari faoliyatini tanqidiy tahlil qilish bir qator chuqur, tizimli muammolarni ochib beradi. Bu muammolarni faqat texnik islohotlar orqali hal qilish qiyin, chunki ular tizimning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Masalan, *birinchi muammo* – "tanlov xatosi" (selection bias). Amaliyot shuni ko'rsatadiki, eng samarali profilaktika tuzilmalari ko'pincha jinoyatchilik kamroq bo'lgan, ijtimoiy jihatdan rivojlangan hududlarda shakllanadi. Aksincha, jinoyatchilik yuqori bo'lgan hududlarda bunday tuzilmalar yetarlicha rivojlanmaydi. Bu esa profilaktika eng zarur bo'lgan joylarda uning imkoniyatlari cheklanishiga olib keladi.

Mazkur muammoni milliy tizimda ham uchratish mumkin. Xususan, mamlakatimizda profilaktik chora-tadbirlar, odatda, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror va farovon hududlarda samaraliroq tashkil etilmoqda. Bunday hududlarda mahalliy hokimiyat organlari imkoniyatlari keng, resurslar yetarli va aholi bilan ishlash tizimi nisbatan yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Biroq, jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan tuman va mahallalarda aksincha holat kuzatiladi. Ushbu hududlarda profilaktika ishlarini amalga oshirish uchun kadrlar, moliyaviy va tashkiliy resurslar yetarli emas, shuningdek, ijtimoiy muammolar (ishsizlik, kam ta'minlanganlik, oilaviy nizolar) ko'proq uchraydi. Natijada, aynan profilaktika kuchli bo'lishi kerak bo'lgan joylarda uning samaradorligi past bo'lib qolmoqda. Bu muammo ijtimoiy xizmatlar va resurslar respublika bo'ylab bir xilda taqsimlanganligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Lekin, bu mexanizm yetarlicha samara bermaydi. Bizningcha, profilaktika tadbirlarini ham ijtimoiy xizmatlar ko'lamini va manbalarini ham bir xil shaklda emas, balki hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, manzilli va maqsadli tashkil etish va taqsimlash zarur. Ya'ni, resurslar va chora-tadbirlar jinoyatchilik xavfi yuqori bo'lgan hududlarga ustuvor tarzda yo'naltirilishi, mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda moslashtirilishi lozim.

Ikkinchi muammo – idoralararo hamkorlikdagi farqlar. Turli tashkilotlar turlicha yondashuv va ish uslubiga ega bo'lgani sababli, ularning samarali hamkorligi har doim ham oson kechmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sheriklar o'rtasida o'zaro ishonch va umumiy maqsad bo'lgan joyda natijalar yaxshi bo'ladi, aks holda esa faoliyat ko'proq rasmiy xarakter kasb etadi.

Uchinchi muammo – demokratik hisobdorlik va ilmiy asoslangan qarorlar o'rtasidagi ziddiyat. Masalan, saylov orqali lavozimga kelgan rahbar tez natija beradigan choralarni afzal ko'rish mumkin. Biroq, jinoyatchilikni kamaytirishda eng samarali choralari, masalan, bolalar va oilalar bilan uzoq muddatli profilaktik dasturlar o'z samarasini darhol emas, balki vaqt o'tishi bilan ko'rsatadi.

To'rtinchi muammo – hududiy nomuvofiqlik. Jinoyatlar ko'p hollarda bir hudud doirasida cheklanib qolmaydi. Ayniqsa, uyushgan jinoyatchilik, narko va kiber jinoyatlar bir nechta hududni qamrab oladi [28]. Shu sababli mahalliy darajadagi choralari har doim ham yetarli bo'lmayligi mumkin.

Bundan tashqari, moliyaviy cheklovlar ham hamkorlikka ta'sir qiladi. Ayrim hollarda resurslar kamayishi natijasida ijtimoiy va yoshlar bilan ishlovchi xizmatlar qisqarib, profilaktika tizimida politsiyaning roli nisbatan kuchayib ketadi. Bu esa umumiy muvozanatga ta'sir ko'rsatadi.

Shu tariqa, mahalliy profilaktika tizimi samarali ishlashi uchun faqat tashkiliy choralari emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional omillarni ham kompleks ravishda hisobga olish zarur.

"Anchored pluralism" konsepsiyasi jinoyatchilik profilaktikasida mahalliy tuzilmalar rolini tushunishda yana bir muhim manba sanaladi. Ian Loader va Neil Walker ushbu yondashuvni bir tomondan, haddan tashqari markazlashuv mahalliy sharoitlarni hisobga olish imkoniyatini cheklaydi, ikkinchi tomondan esa, haddan tashqari tarqoqlik umumiy strategiya va muvofiqlashtirishning yo'qolishiga olib keladi [29], deb izohlaydi.

Bu modelga ko'ra, davlat "langar" vazifasini bajaradi, ya'ni u minimal xavfsizlik standartlari, huquqiy aniqlik va demokratik hisobdorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, profilaktikaning amaliy mazmuni va shakli mahalliy darajada, ya'ni shu hududni yaxshi biladigan tuzilmalar tomonidan belgilanadi.

Shu nuqtai nazarni Gordon Hughes va Adam Edwards tomonidan ishlab chiqilgan "governance of crime" konsepsiyasi ham qo'llab-quvvatlaydi. Unga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi kurash faqat davlat organlari orqali emas, balki turli ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlik va mas'uliyatni taqsimlash orqali amalga oshiriladi [30]. Bu yerda mahalliy tuzilmalar faqat ijrochi emas, balki mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu konsepsiyani amaliyotga tatbiq etish Buyuk Britaniya tizimining ham kuchli, ham zaif tomonlarini ko'rsatadi. Bir tomondan, tizim moslashuvchan, ya'ni mahalliy sharoitga tez moslasha oladi va jamoat ishtirokini rag'batlantiradi. Ikkinchi tomondan esa, yondashuvda resurslarning yetarli emasligi, mahalliy tuzilmalar o'rtasida tajriba almashish mexanizmlarining zaifligi va umumiy muvofiqlashtirishning kamligi kabi bir qator muammolar ko'zga tashlanadi.

Shu bois, bizningcha, har qanday davlatning "langar" vazifasi to'liq amal qilishi uchun u quyidagi **kamida to'rt tayanchga ega bo'lishi** lozim:

- me'yoriy majburiyatlar;
- yetarlicha moliyaviy resurslar;
- faoliyatni doimiy tahlil qilish va xulosa chiqarish;
- mahalliy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash.

Tahlillar esa bu omillarning barchasi bir vaqtning o'zida to'liq ta'minlanmasligini ko'rsatadi.

Buyuk Britaniya misolida amalga oshirilgan yuqoridagi tahlillar va tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

mahalliy tuzilmalar jinoyatlarning oldini olish tizimida faqat ijrochi emas, balki asosiy bo'g'in hisoblanadi. Ular mahalliy ma'lumotlar, ijtimoiy aloqalar va tashkiliy tajribaga ega bo'lgan mustaqil subyektlardir;

ularning samaradorligi faqat rasmiy tuzilmaga emas, balki rahbarlik sifatiga, sheriklar o'rtasidagi ishonchga va jamoadagi ijtimoiy birlik darajasiga bog'liq;

profilaktikadagi "tanlov xatosi" muammosi, ya'ni samarali tuzilmalarning ko'proq rivojlangan hududlarda shakllanishi oddiy moliyaviy choralari bilan hal qilinmaydi. Bu muammo ijtimoiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, kengroq ijtimoiy siyosatni talab qiladi;

mahalliy profilaktikaning moliyaviy jihatdan zaifligi tizimdagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Majburiyatlar mavjud bo'lsa-da, ularni amalga oshirish uchun yetarli resurslar har doim ham ajratilmaydi.

Angliya va Shotlandiya modellari o'rtasidagi farq profilaktikaga turlicha yondashuv mavjudligini ko'rsatadi: biri maqsadli choralarga tayansa, ikkinchisi umumiy qamrov va individual yondashuvni ustuvor deb biladi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy-amaliy o'rganishlar, qiyosiy tahlillar va shakllangan xulosalar asosida mamlakatimizdagi ayrim mavjud muammolarni bartaraf etish va mahalliy profilaktika tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

- dastlab, mahalliy tuzilmalarning profilaktik faoliyatini tizimli va samarali tashkil etish uchun **integratsiyalashgan profilaktika modelini** joriy etish zarur. Ushbu model doirasida mahalliy tuzilmalar (ichki ishlar organlari, mahalliy hokimliklar, ijtimoiy xizmatlar va boshq.) o'rtasidagi hamkorlikni rasmiylashtirish, barcha subyektlar uchun yagona vazifalar va yondashuvlarni belgilash ko'zda tutiladi. Bunda, asosan, "mahalla yetiligi" vakillari (mahalla darajasida), tuman (shahar)dagi huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida bevosita ishtirok etuvchi subyektlar (tuman (shahar) darajasida) **ko'p tarmoqli (multidissiplinar) ishchi guruhlarda ishtirok etib**, hududdagi **jinoyatchilik va ijtimoiy xavf omillarini muntazam tahlil qilib borishi** maqsadga muvofiq. Shuningdek, aholi ishtirokini kengaytirish orqali mahallalardagi **"Mahalla targ'ibotchisi guruhlari"** sonini ko'paytirish ham profilaktika samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi;

- profilaktika tadbirlarini bir xil tarzda emas, balki **hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda** tashkil etish ham dolzarbdir. Ayniqsa, **jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan** tuman va mahallalar uchun alohida yondashuv talab etiladi. Shu maqsadda jinoyatchilik statistikasi va ijtimoiy tahlillar asosida xavf yuqori bo'lgan hududlarga **qo'shimcha resurslar ajratish** hamda **maxsus profilaktika dasturlarini** amalga oshirish maqsadga muvofiq;

- shaharsozlik va infratuzilma orqali profilaktika imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham

muhim yo'nalish hisoblanadi. Bu borada jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan (CPTED) prinsiplarni yanada rivojlantirish, jumladan, "himoyalangan makon" (defensible space) tamoyillarini qo'llash zarur. Shu bilan birga, ushbu talablarni shaharsozlik va qurilishga oid me'yoriy hujjatlarga kiritish orqali huquqiy jihatdan mustahkamlash maqsadga muvofiq;


- yoshlar va oilalar bilan ishlashda kompleks va manzilli yondashuvni joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun maktab, mahalla va ijtimoiy xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar va xavf guruhiga kiruvchi bolalar uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturlar doirasida huquqiy, psixologik maslahat berish, ta'lim va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari birlashtirish samarali natija beradi;

- mahalliy tuzilmalarning profilaktik faoliyatini **dalillarga asoslangan yondashuvga** o'tkazish zarur. Buning uchun statistik ma'lumotlar va tahlil natijalari asosida qaror qabul qilish amaliyotini kengaytirish, **monitoring va baholashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish** talab etiladi;

- profilaktika subyektlari uchun yagona raqamli platforma yaratish orqali ma'lumot almashish, xavf guruhlarini kuzatish va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy tuzilmalar jinoyatlarning oldini olish tizimida yordamchi emas, balki hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy subyektlar hisoblanadi. Aynan ular orqali milliy strategiyalar amaliyotga tatbiq etilib, fuqarolar hayotida real natijalar namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda, mahalliy tuzilmalar faoliyatining samaradorligi nafaqat jinoyatchilik darajasining pasayishiga, balki aholining davlat institutlariga bo'lgan ishonchi, huquqiy ongi va xavfsizlik hissiining shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.



Foydalanilgan manbalar

1. Morgan J. Safer Communities: The Local Delivery of Crime Prevention through the Partnership Approach. London: Home Office, 1991.
2. Hughes G., Edwards A. (eds.) Crime Control and Community: The New Politics of Public Safety. Cullompton: Willan, 2002. – P. 9–35.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-1-son qarori. <https://lex.uz/docs/7330260>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 03.04.2026-yil.)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/7973611>. (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 03.04.2026-yil.)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-yanvardagi "2026-yilda respublika mahallalarida jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2-son qarori (Elektron manbaga murojaat qilingan sana: 03.04.2026-yil.)
6. Crawford A., Evans K. Crime Prevention and Community Safety // Liebling A., Maruna S., McAra L. (eds.) The Oxford Handbook of Criminology. 6th ed. Oxford: Oxford University Press, 2017. – P. 797–824.
7. Loader I., Walker N. Civilizing Security. Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – P. 106–140.
8. Crawford A. Crime Prevention and Community Safety: Politics, Policies and Practices. London: Longman, 1998. – P. 3–15.
9. Sampson R.J., Raudenbush S.W., Earls F. Neighborhoods and Violent Crime: A Multilevel Study of Collective Efficacy // Science. 1997. Vol. 277. No. 5328. – P. 918–924.
10. Sutherland A., Brunton-Smith I., Jackson J. Collective Efficacy, Deprivation and Violence in London // British Journal of Criminology. 2013. Vol. 53. No. 6. – P. 1050–1074.
11. Innes M. Reinventing Tradition? Reassurance Policing in a High-Crime Society // Criminal Justice. 2004. Vol. 4. No. 2. – P. 151–171.
12. Crime and Disorder Act 1998, c. 37. – Ss. 5–7, 17.
13. Home Office. Guidance for Responsible Authorities: Crime and Disorder Reduction Partnerships. London: Home Office, 2007. – P. 4–12.
14. Tilley N. (ed.) Handbook of Crime Prevention and Community Safety. Cullompton: Willan, 2005. – P. 165–196.
15. Gilling D. Multi-Agency Crime Prevention: Some Barriers to Collaboration // Howard Journal of Criminal Justice. 1994. Vol. 33. No. 3. – P. 246–257.
16. Crawford A., Evans K. Crime Prevention and Community Safety // Liebling A., Maruna S., McAra L. (eds.) The Oxford Handbook of Criminology. 6th ed. Oxford: Oxford University Press, 2017. – P. 797–824.
17. Farrington D.P., Welsh B.C. Saving Children from a Life of Crime: Early Risk Factors and Effective Interventions. Oxford: Oxford University Press, 2007. – P. 1–30.
18. Violence Reduction Unit Scotland. 10 Years of the Violence Reduction Unit. Glasgow: VRU, 2015. – P. 5–22.
19. Innes M., Roberts C., Innes H. Assessing the Effects of Neighbourhood Policing // Policing: An International Journal. 2011. Vol. 4. No. 4. – P. 384–392.
20. Tuffin R., Morris J., Poole A. An Evaluation of the Impact of the National Reassurance Policing Programme. London: Home Office Research Study 296, 2006. – P. 1–42.
21. Bennett T., Holloway K., Farrington D. Does Neighbourhood Watch Reduce Crime? A Systematic Review and Meta-Analysis // Journal of Experimental Criminology. 2006. Vol. 2. No. 4. – P. 437–458.
22. Putnam R.D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. New York: Simon & Schuster, 2000. – P. 307–318.
23. Garland D. The Culture of Control: Crime and Social Order in Contemporary Society. Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 124–127.
24. Lowndes V., Gardner A. Local Governance under the Conservatives: Super-Austerity, Devolution and the 'Smarter State' // Local Government Studies. 2016. Vol. 42. No. 3. – P. 357–375.
25. Hastings A. et al. Coping with the Cuts? The Management of the Worst Financial Settlement in Living Memory // Local Government Studies. 2015. Vol. 41. No. 4. – P. 601–621.
26. Hough M., Roberts J. Youth Crime and Youth Justice: Public Opinion in England and Wales. Bristol: Policy Press, 2004. – P. 78–103.
27. Scottish Government. Preventing Offending: Getting it Right for Children and Young People. Edinburgh: Scottish Government, 2015. – P. 5–18.
28. Her Majesty's Inspectorate of Constabulary. Crime Prevention: A Road Well Travelled. London: HMIC, 2018. – P. 34–52.
29. Loader I., Walker N. Civilizing Security. Cambridge: Cambridge University Press, 2007. – P. 106–140.
30. Hughes G., Edwards A. (eds.) Crime Control and Community: The New Politics of Public Safety. Cullompton: Willan, 2002. – P. 9–35.